

IJTIMOIIY TARMOQLARDA AXBOROT MADANIYATI

Axborot texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Odamlar ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot qiladi, fikr almashadi, o'qitadi va o'rganadi. Shu jarayonda ijtimoiy tarmoqlarda to'g'ri xulq-atvor, raqamli odob va etik me'yorlarni bilish har bir pedagog uchun zaruratga aylandi. Chunki o'qituvchi onlayn makonda ham o'zining kasbiy obro'sini, madaniyatini va mas'uliyatini namoyon etadi.

Axborot madaniyati bu insonning axborot bilan ongli, mas'uliyatli va maqsadli munosabatda bo'lish qobiliyatidir. Ijtimoiy tarmoqlarda axborot madaniyati shaxsning raqamli makondagi nutqi, xulqi, etik qadriyatlari va boshqalar bilan muloqot qilish uslublarida namoyon bo'ladi.

Raqamli muhitda madaniyat nafaqat "nima yozish kerakligi"ni, balki "nima yozmaslik kerakligi"ni ham bilishni talab qiladi. Ba'zan bitta so'z, bitta emoji yoki biror sharh odam haqidagi umumiy taassurotni o'zgartirishi mumkin. Shu sababli raqamli muhitda so'z va harakatlar har doim mas'uliyat bilan tanlanishi kerak.

O'qituvchi uchun ijtimoiy tarmoqlarda raqamli odob bu nafaqat shaxsiy masala, balki kasbiy burchdir. Chunki har bir post, izoh yoki surat – bu o'quvchi va ota-onalarga ko'rinadigan ochiq maydon.

Bu esa raqamli maydonda zamonaviy axborot madaniyatining ajralmas qismi "Netiket" tushunchasini yuzaga keltiradi. Netiket — internetda muloqot qilish madaniyati, onlayn axloq qoidalari majmuasidir. Bu tushuncha internet foydalanuvchilari o'rtasida hurmat, xushmuomalalik, muvozanat va mas'uliyatni saqlashni anglatadi.

Netiket qoidalari quyidagicha ifodalanadi:

- onlayn muloqotda hurmatni saqlash;
- jahl bilan yozmaslik, keskin yoki haqoratli so'z ishlatmaslik;
- fikr bildirishda dalilga tayanish;
- spam, soxta axborot va provokatsion postlardan saqlanish;
- mualliflik huquqiga rioya qilish;
- boshqalarning shaxsiy chegaralariga tajovuz qilmaslik.

Masalan, o‘qituvchi o‘quvchi postiga izoh yozganda muloyim tilda, konstruktiv ohangda fikr bildiradi. Yoki onlayn bahsda qarama-qarshi fikrni hurmat bilan tinglaydi, keskin bahslardan chekinadi. Bu esa netiketning amaldagi ifodasi hisoblanadi.

Shu o‘rinda raqamli etikaning bir necha muhim jihatlarini ham sanab o‘tish joiz. Birinchidan, **til madaniyati**. O‘qituvchi onlayn muloqotda ham savodli, xolis, xushmuomala tilda yozishi lozim. Jahl bilan yozilgan so‘zlar, kinoyali yoki keskin izohlar obro‘ni pasaytiradi. Shuning uchun internetda har doim “yozishdan oldin o‘ylash” tamoyiliga amal qilish kerak.

Ikkinchidan, **shaxsiy chegarani saqlash**. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi aloqa, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda, professional darajada qolishi kerak. Masalan, o‘quvchilar bilan aloqada maxsus sinf guruhlari, rasmiy sahifalar orqali yozishish maqsadga muvofiq. Bu o‘qituvchi shaxsiy hayotini himoya qiladi va kasbiy masofani saqlaydi.

Uchinchidan, **senzitivlik va hurmat**. Har bir onlayn muhokamada qarama-qarshi fikrlar bo‘ladi. O‘qituvchi har qanday bahsda hurmat bilan fikr bildirishi, kingadir bosim o‘tkazmasligi yoki kinoya qilmasligi kerak. Onlayn makonda ham mehr, sabr va ehtirom muhim axloqiy qadriyatdir.

To‘rtinchidan, **shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish**. O‘qituvchi o‘quvchi yoki hamkasblariga oid ma’lumotlarni, ayniqsa surat yoki videolarni, ruxsatsiz joylashtirmasligi zarur. Masalan, sinf tadbiri suratini joylashtirishdan oldin ota-onalarning roziligini olish raqamli etik madaniyatning asosiy belgilaridan biridir.

O‘qituvchining raqamli madaniyati o‘quvchilar uchun ham ibratdir. Chunki o‘quvchilar o‘zining onlayn xulqini ko‘p hollarda ustozlaridan o‘rganadi.

O‘quvchilarni raqamli odobga o‘rgatish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

- internetda shaxsiy ma’lumotlarni oshkor qilmaslik;
- begona odamlardan kelgan havolalarni bosmaslik;
- “kiberbulling” (onlayn haqorat yoki tahqir) holatlariga aralashmaslik;
- har bir xabarni baham ko‘rishdan oldin manbasini tekshirish;
- onlayn bahslarda hurmatni saqlash.

Raqamli madaniyatning mohiyati shundaki, ijtimoiy tarmoq sizning kimligingizni dunyoga ko‘rsatadi. U sizning so‘zlaringiz, izohlaringiz va baham ko‘rgan axborotingiz orqali sizni tanitadi.

O‘qituvchi ijtimoiy tarmoqlarda o‘z obro‘sini ikki yo‘l bilan saqlaydi: professional yondashuv va muvozanat orqali. Professional yondashuv – bu



axborotni aniq, ishonchli, adolatli va ijobiy ruhda yetkazish. Muvozanat esa bu har qanday tanqidga sabr bilan, hurmat bilan javob bera olishdir.

Shaxsiy sahifa, xoh u Telegram, xoh Facebook yoki Instagram bo'lsin, bu ham o'qituvchining "virtual sinfi"dir. Unda yozilgan har bir so'z, qo'yilgan har bir rasm o'quvchi uchun dars, ota-ona uchun ishonch manbaidir.

Ijtimoiy tarmoqlarda axborot madaniyati bu faqat texnik yoki kommunikativ masala emas, bu insoniylik, mas'uliyat va vijdon masalasidir. O'qituvchi onlayn maydonda ham o'z kasbining elchisi, madaniyat targ'ibotchisi bo'lishi kerak.

